

Terms	Atamalar	Izoh
n-dimensional arifmetic vector	n - o'lchovli arifmetik vektor	$F = \langle F; +, -, \cdot, \cdot^{-1}, 0, 1 \rangle$ ixtiyoriy maydon bo'lib, F uning asosiy to'plami bo'lsin. F^n to'g'ri ko'paytmaning ixtiyoriy $\vec{a} = (a_1, a_2, \dots, a_n)$ elementi n - o'lchovli arifmetik vektor deyiladi.
Equal vectors of F^n	F^n ning Teng vektorlar	F^n ning ixtiyoriy ikkita $\vec{a} = (a_1, a_2, \dots, a_n)$ va $\vec{b} = (b_1, b_2, \dots, b_n)$ vektorlari uchun $a_1 = b_1, a_2 = b_2, \dots, a_n = b_n$ bo'lsa, berilgan vektorlar teng deyiladi.
The basis of the system	Sistemaning bazisi	Vektorlar chekli sistemasining chiziqli erkli, bo'sh bo'lmagan qism sistemasi yordamida sistemaning har qanday vektorini chiziqli ifodalash mumkin bo'lsa, bunday qism sistemaga berilgan sistemaning bazisi deyiladi.
Multiplication of vector to scalar	Skalyarni vektorga ko'paytirish	$\forall \lambda \in F$ skalyarni $\forall \vec{a} \in F^n$ vektorga ko'paytirish deb $\lambda \vec{a} = (\lambda a_1, \lambda a_2, \dots, \lambda a_n)$ vektorga aytiladi.
n-dimensional arifmetic vector space	n - o'lchovli arifmetik vektor fazo	F^n to'plam, unda aniqlangan qo'shish binar amali va skalyarni vektorga ko'paytirish unar amallari yordamida hosil qilingan $F^n = \langle F^n; +, \{\omega_\lambda \mid \lambda \in F\} \rangle$ algebra F maydon ustida qurilgan n - o'lchovli arifmetik vektor fazo deyiladi.
Linear combinatio	vektorlar sistemasinin	F^n vektor fazoning $\vec{a}_1, \vec{a}_2, \dots, \vec{a}_n, \dots$ sistemasi va F maydonning $\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_n, \dots$ skalyarlari

n of system of vectors	g chiziqli kombinatsiyasi	berilgan bo'lsin. $\lambda_1 \vec{a}_1 + \lambda_2 \vec{a}_2 + \dots + \lambda_n \vec{a}_n + \dots$ ifodaga $\vec{a}_1, \vec{a}_2, \dots, \vec{a}_n, \dots$ vektorlar sistemasining chiziqli kombinatsiyasi deyiladi.
Equivalent systems	ekvivalent sistemalar	Agar R va T sistemalarning ixtiyoriy biridan olingan har qanday noldan farqli vektorni ikkinchi sistema vektorlarining chiziqli kombinatsiyasi sifatida ifodalash mumkin bo'lsa, bunday sistemalar ekvivalent sistemalar deyiladi
The rank of vectors' system	Vektorlar sistemasinin g rangi	Vektorlar chekli sistemasining ixtiyoriy bazisidagi vektorlar soniga uning rangi deyiladi.